

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th March, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

OTA-ONALARNING VOYAGA YETMAGAN BOLALARI OLDIDAGI ALIMENT MAJBURIYATLARI

Toshmatova Mamlakatxon Abdulxayevna

Fuqarolik ishlari bo'yicha

Izboskan tumanlararo sudi sudyasi

Annontatsiya:

Ushbu maqolada ota-onaning voyaga yetmagan farzandiga aliment ko'rinishidagi ta'minot berish majburiyati haqida so'z borada. Ota-ona o'rtasida aliment bo'yicha kelishuv tuzish, alimentni sud tartibida belgilash, sud hujjatlarini ijro qilish, aliment to'lovchi shaxsni chetga chiqish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: ota-ona, bola, aliment, kelishuv, da'vo, xal qiluv qarori, ijro varag'i, javobgarlik.

KIRISH

Ota-ona voyaga yetmagangan bolalariga ta'minot berishi shart. Voyaga yetmagan bolalariga aliment to'lash va ularga ta'minot berishda ota-onaning majburiyatlari tengdir. Voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berish majburiyatini ixtiyoriy ravishda bajarmagan ota (ona)dan sudning hal qiluv qaroriga yoki sud buyrug'iga asosan aliment undiriladi. Aliment to'lash majburiyati sud qaroriga asosan ota-onalik huquqidan mahrum etilgan shaxslarga nisbatan ham qo'llanadi. Ya'ni shaxsning ota-onalik huquqidan mahrum qilinishi uni aliment to'lash majburiyatidan ozod etmaydi. Aliment to'lash majburiyati ota-onalar o'rtasidagi aliment to'lash to'g'risidagi notarial kelishuv, sudning aliment undirish haqidagi buyrug'i yoki hal qiluv qaroriga asosan belgilanadi. Aliment to'lash to'g'risidagi notarial kelishuv sud tartibida bekor qilingan taqdirda ota-onalar aliment to'lash majburiyatidan ozod bo'lmaydi va aliment sud tartibida undiriladi.[1]

MATERIAL VA METODLAR. Voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berish uchun aliment to'lash tartibi va shakli haqida ota-ona o'rtasidagi kelishuv qonunda belgilangan qoidalarga va bolaning manfaatlariga zid bo'lmasligi kerak. Oila kodeksining 130-moddasiga muvofiq, aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv (aliment miqdori, shartlari va to'lash tartibi) aliment to'lashi shart bo'lgan shaxs



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th March, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

bilan aliment oluvchi o'rtasida tuziladi. Agar aliment oluvchi muomalaga layoqatsiz bo'lsa, kelishuv uning qonuniy vakili bilan tuziladi. 14 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar hamda sud tartibida muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar nomidan kelishuv ulaming qonuniy vakillari (voyaga yetmaganlarning ota-onalari, vasiylari, homiylari) tomonidan tuziladi 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlarhamda muomalaga layoqati sud tartibida cheklangan shaxslar o'z qonuniy vakillarining roziligi bilan aliment to'lash to'g'risida kelishuv tuzadilar. Kelishuvni yozma ravishda tuzish va uni notarial tarzda tasdiqlash sharti belgilangan. Notarial tartibda tasdiqlanmagan aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv haqiqiy hisoblanmaydi.

Notarial tasdiqlangan kelishuv o'z ijro kuchiga ko'ra ijro varaqasiga tenglashtiriladi. Bu aliment ushlab qolish uchun boshqa hujjatlarni ko'rsatish talab qihnmasligini bildiradi. Notarial tasdiqlangan kelishuvni jo'natish, hisobga olish va saqlashga nisbatan ijro varaqalarini jo'natish, hisobga olish va saqlash qoidalari qo'laniladi.[2]

Voyaga yetmagan bolalarga aliment to'lash haqida ota-ona o'rtasida kelishuv bo'lmaganda yoki aliment ixtiyoriy ravishda to'lanmaganda va ota-onadan birortasi ham aliment undirish to'g'risida sudga da'vo yoxud ariza bilan murojaat qilmagan hollarda, vasiylik va homiylik organlari, shuningdek o'n to'rt yoshga to'lgan bola voyaga yetmagan bolaning ta'minoti uchun ota yoki onadan qonunda belgilangan miqdorda aliment undirish to'g'risida da'vo qo'zg'atishga haqlidir.

Ota-ona va bola alohida-alohida yashagan taqdirda, vasiylik va homiylik organlari, shuningdek o'n to'rt yoshga to'lgan bola bir vaqtning o'zida ota va onadan voyaga yetmagan bolalarning ta'minoti uchun aliment undirish to'g'risida da'vo qo'zg'atishga haqli. Qonunda belgilangan umumiy qoidalarga asosan ota-ona o'z bolalarini voyaga yetgunicha (18 yoshga to'lgunga qadar) ta'minlashlari shart.

Bolasiga ta'minot berish majburiyatini ixtiyoriy ravishda bajarmagan ota-onadan sudning hal qiluv qaroriga yoki buyrug'iga asosan aliment undiriladi. Bolaga aliment to'lash haqida ota-ona o'rtasida kelishuv bo'lmaganda yoki aliment ixtiyoriy ravishda to'lanmaganda va ota-onadan birortasi ham aliment undirish to'g'risida sudga da'vo yoxud ariza bilan murojaat qilmagan hollarda vasiylik va homiylik organlari bolaning ta'minoti uchun ota yoki onadan qonunda belgilangan miqdorda aliment undirish to'g'risida da'vo qo'zg'atishga haqlidir.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th March, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

O‘zaro kelishuvga asosan tomonlar to‘lanadigan aliment miqdorini mustaqil belgilashlari va boshqa shartlar asosida bu masalani sudgacha hal qilishlari mumkin. Biroq amaliyotda masalani sudgacha hal qilish holatlari kam uchraydi. Har qanday holatda ham tomonlardan birining aliment undirishni so‘rab sudga murojaat qilishi aliment to‘lash majburiyatining vujudga kelishiga sabab bo‘ladi. Aliment olish huquqiga ega bo‘lgan shaxs, oradan qancha muddat o‘tganidan qat’i nazar, xohlagan vaqtda aliment undirish to‘g‘risidagi talab bilan sudga murojaat qilishga haqlidir. Aliment sudga murojaat etilgan paytdan boshlab undiriladi.

TADQIQOT NATIJALARI. Agar sudga murojaat qilingunga qadar ta‘minot olish chorasi ko‘rilganligi, ammo aliment to‘lashi shart bo‘lgan shaxs uni to‘lashdan bosh tortgani aniqlansa, o‘tgan davr uchun aliment sudga murojaat etilgan paytdan oldingi uch yillik muddat doirasida undirilishi mumkin. Ko‘pincha otalar aliment to‘lashadi, biroq onalardan aliment undirish to‘g‘risidagi ijro hujjatlari ham bor.

Bundan tashqari, ota-ona voyaga yetgan, mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bolalariga ham ta‘minot berishi shart. Bunday bolalarga ta‘minot ota-onaning kelishuviga binoan beriladi. Ota-ona o‘rtasida bunday kelishuvga erishilmaganda nizo sud tartibida hal qilinadi.

Ota-ona bolasiga to‘laydigan aliment miqdori Oila kodeksining 99-moddasida belgilab qo‘yilgan, unga ko‘ra agar voyaga yetmagan bolalariga ta‘minot berish haqida ota-ona o‘rtasida kelishuv bo‘lmasa, ularning ta‘minoti uchun aliment sud tomonidan ota-onaning har oydagi ish haqi va boshqa daromadining bir bola uchun to‘rt dan bir qismi; ikki bola uchun uchdan bir qismi; uch va undan ortiq bola uchun yarmi miqdorida undiriladi. Aliment miqdori taraflarning moddiy yo oilaviy ahvolini va boshqa e‘tiborga loyiq holatlarni hisobga olgan holda sud tomonidan ozaytirilishi yoki ko‘paytirilishi mumkin.

Har bir bola uchun undiriladigan aliment qonunchilik bilan belgilangan mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 26,5 foizidan oz bo‘lmasligi kerak.

Shaxs aliment pulini ixtiyoriy ravishda to‘lashi ham mumkin, bu holda sudning aliment undirish haqidagi ijro hujjati yoki aliment to‘lash to‘g‘risidagi notarial kelishuv bo‘lmagan taqdirda aliment to‘lashi lozim bo‘lgan shaxs o‘z ish joyiga alimentni ushlab qolish to‘g‘risida ariza bilan murojaat qiladi. Ushbu tartib Oila kodeksining 135-moddasida aks etgan.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th March, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Aliment bilan bog‘liq sud hujjatlarining ijro etilishiga ham alohida to‘xtalib o‘tish kerak. Bugungi kunda Bosh prokuratura huzuridagi Majburiy ijro byurosi sud va boshqa organlarning hujjatlarini, shu jumladan aliment undiruvi bilan bog‘liq hujjatlarni ijro etish bilan shug‘ullanadi.

“Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida”gi qonunning 70-moddasiga asosan aliment undirish tartibi Oila kodeksi bilan belgilanadi.

Ijro uchun kelib tushgan hujjat “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida”gi qonunning 8-moddasi talablariga javob bersa, davlat ijrochisi bir kun ichida ushbu qonunning 23-moddasiga asosan ijro ishini yuritish to‘g‘risida qaror qabul qiladi va uning nusxasini keyingi kundan kechiktirmay taraflarga yuboradi. Ta’kidlash joizki, qonunning 30-moddasiga asosan aliment undiruvi bilan bog‘liq hujjatlar darhol ijro etiladi.[3]

Ijro ishini yuritish to‘g‘risidagi qaror taraflarga yuborilgandan so‘ng ishni yuritishda taraflarga, ya’ni aliment oluvchi va to‘lovchiga davlat ijrochisi ularning huquq va majburiyatlarini tushuntiradi va aliment undirish chorasini ko‘radi. Ushbu chora aliment to‘lovchining ish haqi va boshqa daromadlarini aniqlash hamda aliment undirishdan iborat.

Majburiy ijro harakatlari davomida aliment to‘lashi lozim bo‘lgan shaxs ishlamasa yoki ish haqi to‘g‘risidagi ma’lumotni taqdim etmagan bo‘lsa, aliment puli o‘rtacha oylik ish haqi miqdori bo‘yicha hisoblab chiqiladi. Agar bu taraflardan birining manfaatlariga jiddiy putur yetkazsa, u sudga murojaat qilishga haqlidir. Sud taraflarning moddiy, oilaviy ahvoli va boshqa e’tiborga loyiq holatlarni inobatga olib, qarzni pul bilan to‘lanadigan qat’iy summasini belgilashi mumkin.

Bundan tashqari, ijro harakatlari davomida aliment oluvchi va to‘lovchi o‘zaro kelishuvga erishganida yoki yarashib ketganida “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida”gi qonunning 40-moddasi 1-bandiga binoan, ya’ni aliment oluvchining arizasiga asosan ijro hujjatini saqlash uchun o‘zlariga qaytarib olishlari mumkin. Bu holatda aliment oluvchida ijro hujjatini ushbu qonunning 27-moddasi talablari asosida qaytadan ijroga topshirish huquqi saqlanib qoladi.

Aliment undirish bilan bog‘liq hujjatlarni ijro etishdagi yana bir muhim jihat – “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida”gi qonunning 421-moddasiga asosan qarzdorning O‘zbekistondan chiqish huquqini vaqtincha cheklash masalasiga alohida to‘xtalib o‘tish lozim. Ushbu moddaga ko‘ra aliment vaqtida to‘lanmaganda davlat ijrochisi aliment oluvchining arizasi bo‘yicha yoki



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th March, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

o‘z tashabbusi bilan qarzdorning O‘zbekistondan chiqishini vaqtincha cheklash to‘g‘risida qaror chiqarishga haqli. Qonunning 421-moddasiga asosan ijro hujjatining talablari bajarilganda yoxud u bo‘yicha ish yuritish tugatilganda yoki tamomlanganda taqiq bekor qilinadi.

Shuningdek, bola 18 yoshga to‘lgunga qadar hisoblangan aliment oldindan to‘langan yoki aliment to‘lash majburiyatini ta‘minlash uchun garov shartnomasi tuzilganda ham qarzdorning O‘zbekistondan chiqish huquqiga nisbatan qo‘yilgan taqiq bekor qilinadi.

Alimentni o‘z vaqtida to‘lamagan yoki umuman to‘lamaganlarga nisbatan qonunda jazo choralari belgilangan. Xususan, Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 474-moddasiga ko‘ra ikki oydan ortiq aliment to‘lamaslik o‘n besh sutka muddatga ma‘muriy qamoqqa olishga yoki ushbu kodeksga muvofiq ma‘muriy qamoq qo‘llanishi mumkin bo‘lmagan shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravari miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.[4]

Birinchi marta huquqbuzarlik sodir etgan shaxs ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishni

ko‘rish jarayonida aliment qarzini ixtiyoriy ravishda to‘lasa, javobgarlikdan ozod etiladi.

Jinoyat kodeksining 122-moddasiga ko‘ra ma‘muriy jazo qo‘llanganidan keyin ham alimentni ikki oydan ortiq muddat mobaynida to‘lamaslik ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O‘sha qilmishni xavfli retsidivist sodir etgan bo‘lsa, ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

TADQIQOT NATIJALARI TAHLILI. Agar shaxs aliment qarzini to‘liq to‘lagan bo‘lsa, javobgarlikdan ozod qilinadi.

Aliment undiruvi bilan bog‘liq qonun hujjatlari takomillashib bormoqda. Xususan, O‘zbekiston Prezidentining 2022-yil 7-martda qabul qilingan “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida “Aliment to‘lovlari” jamg‘armasini tashkil etish nazarda tutilgan. Shu maqsadda

Vazirlar M a h k a m a s i n i n g 427-qarori qabul qilinib, Bosh prokuratura huzuridagi Majburiy ijro byurosida “Aliment to‘lovlari” jamg‘armasi tashkil etildi.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th March, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Majburiy ijro byurosini rivojlantirish jamg'armasi hisobidan mazkur jamg'armaga 50 milliard so'm mablag' ajratildi.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, alimentni o'z vaqtida to'lamaganlik uchun jazo choralari bolalarning moddiy ta'minoti masalasini to'liq hal qilmaydi. Aliment to'lamaganlik uchun ma'muriy qamoq yoki ozodlikdan mahrum etish jazosi tayinlangan qarzdorlar qo'llangan ta'sir choralariga qaramasdan alimentni to'lamasligi ushbu choralardan bolalarning manfaatdorligini minimal darajaga keltirgan.

Endilikda alimentni o'z vaqtida to'lamagan qarzdorlarga nisbatan Jinoyat kodeksining 122-moddasiga asosan jinoyat ishi qo'zg'atilgandan so'ng to'lanmay qolgan aliment ushbu jamg'arma hisobidan biryo'la to'lab beriladi. Biroq bu qarzdorni aliment to'lash majburiyatidan ozod etmaydi va majburiy ijro harakatlari davom ettirilib, aliment undan jamg'arma hisobiga undirib olinadi.

Xullas, notinch oilalar, ajrimlar, aliment masalasi jamiyat uchun dolzarb ahamiyatga ega. Bolalarning ta'minoti davlat tomonidan kafolatlanishi va davlatning aliment masalalariga maksimal aralashuvi bilan oilaviy ajrimlar sonining kamayishiga erishib bo'lmaydi. Mahalla instituti vositasida oilaviy ajrimlarning oldini olish, shu bilan bir qatorda aliment to'lovlari bo'yicha ham fuqarolarning mas'uliyatini oshirish ko'proq samara berishi mumkin.

Aliment to'lashi shart bo'lgan shaxs doimiy yashash uchun yoki uch oydan ortiq muddatga chet davlatga ketayotganida qonunga muvofiq o'zi ta'minot berishi lozim bo'lgan aliment oluvchilar bilan aliment to'lash to'g'risida kelishuv tuzishi shart.

Aliment to'lash to'g'risida kelishuvga erishilmagan taqdirda manfaatdor shaxs aliment miqdorining pul bilan to'lanadigan qat'iy summada belgilanishi va alimentni bir yo'la to'lash to'g'risida yoki aliment evaziga muayyan mol-mulkni berish yoxud alimentni boshqa usulda to'lash to'g'risidagi talab bilan sudga murojaat qilishga haqli.

Voyaga etmagan bolalar ta'minoti uchun alimentlar oldindan to'langan yoki aliment to'lash majburiyatini ta'minlash uchun garov shartnomasi tuzilgan bo'lsa, shaxs aliment to'lash to'g'risida kelishuv tuzish majburiyatidan ozod etiladi.

Alimentlarni oldindan to'lash, shuningdek aliment to'lash majburiyatini ta'minlash bo'yicha garov shartnomasini tuzish tartibi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th March, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Alimentlar summasini oldindan to'lash yoki alimentlar to'lash majburiyatini ta'minlash bo'yicha garov taqdim etish faqat qarzdorning aliment to'lovlaridan qarzdorligi mavjud bo'lmaganda amalga oshiriladi. Alimentlarni oldindan to'lash oylik ish haqi va (yoki) boshqa daromadga nisbatan ulushlar hisobida belgilangan bo'lsa, oldindan to'langan alimentlar uchun keyingi davrlarda aliment to'lovchining oylik ish haqi va (yoki) boshqa daromadi ko'payishi natijasida vujudga keladigan qo'shimcha aliment to'lovlarini to'lashdan ozod qilmaydi.

Alimentlarni oldindan to'lash yoki aliment to'lash majburiyatini ta'minlash uchun garov shartnomasining tuzilishi davlat ijrochisi yoki sud tomonidan qarzdor jismoniy shaxsning ilgari belgilangan O'zbekiston Respublikasidan chiqishini vaqtincha cheklashni olib tashlash uchun asos hisoblanadi.[5]

XULOSA

Bolaning ota-onasi tomonidan ta'minlanishi qonunchilik bilan belgilab qo'yilganidek, Islomda ham bolaning ota-onadagi haqi aniq ko'rsatilgan. Islom dini bolalarga g'amxo'rlik qilish va ularning barcha haq-huquqlariga rioya qilishga chaqiradi. Farzandga bo'lgan bu e'tibor nafaqat u dunyoga kelgandan keyin, balki tug'ilmasidan oldin boshlab yuboriladi va bu e'tibor farzand hayotining barcha davrlarini o'z ichiga oladi. Bu haqlarni ado etish vojib bo'lib, unga amal qilish majburiy hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi:-Toshkent:“Yuridik adabiyotlar publish”,2022 y. - 208 b.
- 2.Oila huquqi: darslik/F.M. Otaxo'jayev, Sh.R. Yuldasheva; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: Cholpon nomidagi NMIU. 2013, 208 b.
- 3.O'zbekiston Respublikasining 29.08.2001 yildagi 258-II-son “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida”gi qonuni URL:<https://lex.uz/docs/-26477>
4. O'zbekiston Respublikasining Mamuriy javobgarli to'g'risidagi kodeksi 22.09.1994, URL:<https://lex.uz/docs/-97664>
- 5.<https://advice.uz/oz/document/651>.

